

ВОЯГА ЕТМАГАНЛАРНИНГ ОНГИГА ТАЪСИР КОРСАТУВЧИ ИЖТИМОЙ ИЛЛАТЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ

Хайдаралиев Бобурмирзо Бахтиёр ўғли

*Ўзбекистон Республикаси ички ишлар вазирлиги академияси 3 босқич 316
гуруҳ курсанти*

Anatatsiya: *Jamiyat hayotining turli sohalarida inson omili ustun hisoblanadi, ayniqsa, unda voyaga yetmaganlarning haq-huquqlarini himoya qilish, ularning ilmiy, ijodiy, intellektual salohiyatini yuksaltirishga asosiy vazifalardan biri sifatida qaraladi. Shu bilan birgalikda, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar sonining ortishi, o'smirlar o'rtasida deviantxulqning ommalashuvi kabi holatlar huquqbuzarlik profilaktikasi masalasida jamiyatning barcha institutlari tizim sifatida o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishini taqozo etmoqda. Ushbu tizimning o'ziga xos subyekti sifatida umumta'lim maktablari jamiyatdagi asosiy ta'lim-tarbiya manbai bo'lib qolmay, huquqbuzarlik profilaktikasi vositasi ham sanaladi. Maqolada voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasi borasida umumta'lim maktablarining o'rne va ahamiyati o'rganib tahlil qilinadi.*

Kalit so'z: *huquqbuzarlik, g'ayriijtimoiyhatti-harakatlar, deviantxulq-atvor, yakka tartibdagi profilaktika, maxsus profilaktika, nazoratsiz bola, bola rehabilitatsiyasi, ijtimoiy pedagog.*

Вояга етмаганларнинг орасида назоратсизлик ва ҳукукбузарликлар профилактикаси, ҳукукбузарликлар махсус профилактикасининг йуналишларидан бири ҳисобланади.

Хотин-кизлар кумиталари, "Ёшлар ишлари агентлиги", "Маҳалла" фуқаролар йигинлари томонидан ИИБ ҳамда меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш бошқармаси билан ҳамкорликда вояга етмаганлар ҳамда ёшлар орасида назоратсизлик, ҳукукбузарлик, жиноятчилик, гиёҳвандлик, ОИТС, терроризм, диний экстремизм каби салбий иллатларнинг олдини олиш борасидаги зарур чора-тадбирлар дастури ишлаб чиқилиб, қўллаб-қўлланувчи тадбирлар ўтказилмоқда.

Ушбу чора-тадбирлар натижасида, ҳудудларда вояга етмаганлар орасида жиноятчилик камайиб бормоқда. Бу ҳолатни бардавомлигини тامينлаш, вояга етмаганлар ҳукукбузарликларини олдини олиш мақсадида фуқаролик жамияти институтлари ва нодавлат нотажорат ташкилотлар давлат органлари билан ҳамкорликни кучайтириши тақозо этади.

Тақидлаб ўтиш керакки, БМТнинг Болалар ҳуқуқлари тугрисидаги Конвенцияси, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, "Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тугрисида"ги қонунлари ва бошқа қонун ҳужжатлари ижросининг таъминланишига алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Маълумки, Олий Мажлис палаталари томонидан қабул қилинган "Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тугрисидаги кодексига узгартиш ва қушимчалар киритиш ҳақида"ги Қонун ёшлар уртасида жиноятчилик билан боғлиқ вазиятни яхшилаш, уларнинг гайриижтимоий хатти-ҳаракатининг олдини олишга қаратилган бўлиб, унда вояга етмаганларни тунги вақтда ота-онасидан бирининг ёки уларнинг урнини босувчи шахснинг қузатувисиз рестороанларга, кафеларга, барларга, дискотекаларга, кинотеатрларга, интернет ва компьютер залларига, қунгилочар тадбирлар утқазиладиган бошқа биноларга киритганлик учун маъмурий жавобгарлик жорий этилиши қузда тутилган.

Мазкур Қонун Бирлашган Миллатлар Ташкилоти томонидан 1989йил 20 ноябрда қабул қилинган "Бола ҳуқуқлари тугрисида"ги Конвенция 31-моддасининг "Иштирокчи-давлатлар боланинг дам олиш ва буш вақтини утқазиш ҳуқуқини, узининг ёшига мос келадиган уйинлар ва қунгилочар тадбирларда иштирок этиш, маданий ҳаётда эркин катнашиш, санъат билан шугулланиш ҳуқуқини эътироф этадилар", — дейилган нормасига ҳамоҳангдир.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA VEB SAYTLAR:

1. Abdurasulova. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi va uning oldini olish muammolari. —Qonun himoyasidal T. №1. 2001y. 23 bet.
2. Каримова Л.И. Социальная психология и реклама: Учебное пособие для вузов. Т.: Издательско-полиграфический творческий дом им. Г. Гуляма, 2004. С. 20.
3. Giddens E. Sotsiologiya. Toshkent - Sharq, 2002.
4. B.A.Aliyev., G'.Rafiqov., T.Sultonov., M.Mullajonova., B.Rahmonov. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. - T.: 2005, 120-127 b
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/voyaga-yetmaganlar-deviant-xulq-atvor-profilaktikasi>
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/voyaga-yetmaganlar-deviant-xulq-atvor-profilaktikasi>